## № 8-AMALIY MASHG‘ULOT



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Ishning maqsadi:** *boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi bir qator muhim maqsadlarni ko‘zlaydi:*

- **Talabalar qiziqishini oshirish:**

o axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan interaktiv o‘yinlar, virtual ekskursiyalar, animatsiyalar va videoroliklar talabalarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshiradi.

o tabiat hodisalari va obyektlarini jonli va rang-barang tarzda namoyish etish orqali talabalarning diqqatini jalb qilish mumkin.

- **O‘quvchilarning qiziqishini oshirish:**

o interaktiv o‘yinlar, virtual modellar va animatsiyalar orqali texnologiya darslarining jozibadorligini oshirish;

o talabalarni mashg‘ulotga faol ishtirok etishini tashkil etish va ularning diqqatini jalb qilishga erishish.

- **Kognitiv faoliyatni faollashtirish:**

o talabalarni nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki mustaqil ravishda ma’lumot izlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga undash.

o interaktiv mashqlar, testlar va viktorinalar orqali talabalarning bilimlarini mustahkamlash va o‘zlashtirish darajasini baholash.

- **Ko‘rgazmalilikni ta’minlash:**

o murakkab texnologik jarayonlarni virtual modellar, simulyatsiyalar va 3D-animatsiyalar orqali vizual tarzda namoyish qilishni tashkil etishga erishish;

o o‘quv materiallarini tushunarli bo‘lishligini ta’minlash va talabalarning texnologik tasavvurini boyitish.

- **Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish:**

o talabalarga oddiy dasturlash, robototexnika va 3D-modellashtirish kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishni tashkil etish;

o talabalarning ijodiy va texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish.

- **Zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish:**

o talabalarda kompyuter savodxonligi, axborot izlash va tahlil qilish, multimedia materiallari bilan ishlash kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish.

o bu ko‘nikmalar ularning kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun zarurdir.

- **Individual yondashuvni ta’minlash:**

o axborot texnologiyalari yordamida har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini moslashtirishga erishish;

o turli xil qobiliyatga ega bo‘lgan talabalar uchun turli darajadagi topshiriqlar va mashqlarni yaratishni ta’minlash.

- **O‘quv materiallariga kirishni soddalashtirish:**

o internet va raqamli resurslar orqali talabalarning qo‘shimcha ma’lumotlar, video lavha, interaktiv o‘yinlar va boshqa o‘quv materiallariga osongina kirishlarini ta’minlashga erishish.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, o‘z vaqtida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Vazifalar:**

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;

2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

**O‘quv vositalari:** *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

**Qisqacha nazariy ma’lumot**

Texnologiya bu boshlang‘ich ta’lim fani sifatida fanning turli sohalaridan olingan nazariy bilimlarni turli faoliyat turlarida amaliy qo‘llashga o‘rgatishdir. Texnologiya fani o’quv jarayoni o‘quvchilar jinsini hisobga olgan holda kichik guruhlarga bo'lish orqali amalga oshiriladi, chunki ta’lim yo‘nalishlari har xil (qizlarga uy xo‘jaligi, o‘g‘il bolalarga mehnat qurollari yordamida turli materiallar bilan ishlashga o‘rgatiladi). Texnologiya darslarida o‘g‘il bolalar materiallar bilan ishlashning turli usullarini, ularni qayta ishlash jarayonlarini o‘zlashtiradilar, yog‘och, metall va boshqalardan oddiy buyumlarni yasash usullarini o‘rganadilar. Darsda materialning mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli shakllaridan foydalanishga imkon beradi (yangi materialni, shu jumladan nazariy materiallarni yetkazish uchun taqdimotlar, video eshittirishlar, o‘quvchilarning kompyuter bilan individual ishi va boshqalar). Shuni ham ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda AKTdan foydalanish nafaqat maqsadga muvofiq, balki zarur, chunki ba’zi materiallarni, mashinalarni, qo‘llaniladigan texnologiyani ta’lim sharoitida ko‘rsatish ba’zan shunchaki imkonsizdir, ammo AKT yordamida o’quvchilar aniqlik asosida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;
3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   3.2. talabalarni rajbatlantirish;
   3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

**Mashg‘ulot jarayoni:**

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

**Qo‘shimcha tavsiyalar:**

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Topshiriqlar:**

**1-topshiriq.** Texnologiya fanining aniq mavzusini interaktiv o‘yinlar orqali havola eting. Bunda

`Kahoot` onlayn dasturiy ilovadan foydalaning.

**2-topshiriq.** Texnologiya fani mavzusi yuzasidan virtual ekskursiya qilishni amalga oshiring. Bunda `3DVista` onlayn dasturiy ilovadan foydalaning.

**3-topshiriq.** Texnologiya fani mavzusi yuzasidan viktorinalar yaratishni amalga oshiring. Bunda `Kahoot` onlayn dasturiy ilovadan foydalaning.

**4-topshiriq.** Texnologiya fani mavzusi yuzasidan virtual model yaratishni amalga oshiring. Bunda `K-3D` dasturiy ilovadan foydalaning.